



ANDIJON VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI






CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023-yil 1-noyabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **5 986** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **21** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **5 965** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-oktabr oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **16 299,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan **106,0** % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **1 128,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **107,3** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **15 171,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **105,9** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 585,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **106,6** %) tashkil etdi.

	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar- oktabr oyiga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	16 299,4	106,0
Andijon sh.	4 462,6	108,3
Xonobod sh.	179,0	103,8
<i>tumanlar</i>		
Oltinko'l	650,7	107,5
Andijon	1 043,6	103,3
Baliqchi	1 064,1	103,6
Bo'ston	239,9	106,3
Buloqboshi	517,3	103,2
Jalaquduq	545,0	110,6
Izboskan	563,2	105,6
Ulug'nor	227,3	102,7
Qo'rg'ontepa	1 131,0	112,3
Asaka	1 410,1	103,8
Marhamat	738,8	103,0
Shahrixon	2 171,6	104,7
Paxtaobod	763,4	103,1
Xo'jaobod	591,7	104,3


2023-yilning yanvar-oktabr oylarida 2022-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan viloyatning Andijon shahri (**8,3** %), Jalaquduq (**10,6** %), Qo'rg'ontepa (**12,3** %) va Oltinko'l (**7,5** %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.



YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI




Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi (yanvar-oktabr)



So'nggi **5 yillikda** (2019-2023-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi eng yuqori o'sishi 2022-yilga tog'ri kelib, **110,1 %** ni tashkil qildi.


Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda) (2022-yil, 2023-yil yanvar -oktabr oylari)



2023-yilning yanvar-oktabr oyida o'sish sur'ati **106,0 %** ni tashkil qildi.



Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Andijon shahri **27,4 %** bilan **4 462,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Xonobod shahri **1,1 %** bilan **179,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **15 171,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan **5,9 %** ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **93,1 %** ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan **7,3 %** ga o'sdi va **1 128,1** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **6,9 %** ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)

Andijon viloyati	6.9	93.1
Andijon sh.	16.6	83.4
Xonobod sh.	6.1	93.9
Oltinko'l	6.7	93.3
Andijon	8.1	91.9
Baliqchi	3.5	96.5
Bo'ston	7.1	92.9
Buloqboshi	1.5	98.5
Jalaquduq	6.5	93.5
Izboskan	2.4	97.6
Ulug'nor	0.9	99.1
Qo'rg'ontepa	1.0	99.0
Asaka	3.3	96.7
Marhamat	2.0	98.0
Shahrixon	1.2	98.8
Paxtaobod	2.6	97.4
Xo'jaobod	2.8	97.2

■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Ulug'nor (**99,1** %), Qo'rg'ontepa (**99,0** %), Shahrixon (**98,8** %) va Buloqboshi (**98,5** %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **6,9** % ni tashkil etib, eng katta ulush Andijon shahri (**16,6** %), Andijon (**8,1** %), Bo'ston (**7,1** %) va Oltinko'l (**6,7** %) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'ati, foizda
Andijon viloyati	4 866,4	103,8
Andijon shahar	9 438,7	105,8
Xonobod shahar	3 952,3	101,7
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	3 421,1	105,3
Andijon	3 696,8	101,1
Baliqchi	4 995,7	101,5
Bo'ston	3 124,0	104,3
Buloqboshi	3 423,6	101,1
Jalaquduq	2 771,9	108,5
Izboskan	2 233,2	103,5
Ulug'nor	3 590,4	101,1
Qo'rg'ontepa	4 969,3	110,4
Asaka	4 025,5	101,5
Marhamat	4 017,5	100,8
Shahrixon	6 788,5	102,3
Paxtaobod	3 707,4	100,8
Xo'jaobod	5 005,9	101,6


2023-yilning yanvar-oktabr oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **4 866,4** ming so'm (2022-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan **103,8** %)ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (**9 438,7** ming so'm), Shahrixon (**6 788,5** ming so'm) va Xo'jaobod (**5 005,9** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2023-yilning yanvar-oktabr oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 585,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan **106,6 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **1 111,6** mlrd. so'mni (**128,1 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **1474,0** mlrd. so'mni tashkil etdi (**106,1 %**).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (yanvar-oktabr, foizda)




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan, savdo pavilionlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022-yil yanvar- oktabr oyiga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	2 585,6	106,6
Andijon shahar	581,9	131,6
Xonobod shahar	5,5	52,0
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	41,7	106,5
Andijon	73,3	103,4
Baliqchi	154,4	92,4
Bo'ston	23,2	140,0
Buloqboshi	88,3	96,5
Jalaquduq	82,9	160,8
Izboskan	33,5	157,0
Ulug'nor	84,7	89,1
Qo'rg'ontepa	168,8	317,7
Asaka	260,8	98,9
Marhamat	138,9	92,7
Shahrixon	518,7	94,3
Paxtaobod	222,6	81,2
Xo'jaobod	106,4	82,9










* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.













UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI

2023-yilning yanvar-oktabr oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **1 111,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**375,5** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		mlrd. so'm
	Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari	375,5
	Non va non mahsulotlari	310,2
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	133,8
	Tovuq go'shti	44,7
	Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yong'oq, bodom, pista va boshqalar)	39,1
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)	23,0
	Tuxum	32,9
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem-xashak	7,4
	Ziravorlar	41,4
	Tuzlamalar	24,7
	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)	12,7
	Nooziq-ovqat tovarlari	66,3

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd. so'm

2023-yilning yanvar-oktabr oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **1 474,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi **1 249,7** mlrd. so'm, qo'y va echkilar – **202,5** mlrd. so'mni, otlar – **11,7** mlrd. so'mni, parrandalar – **10,1** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		mlrd. so'm
	2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar	746,0
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	308,8
	1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar	195,0
	Qo'ylar	197,8
	Otlar	11,7
	Echkilar	4,6
	Kurka, o'rdak, g'oz	6,6
	Tovuqlar	2,6
	Quyionlar	0,5
	Qushlar	0,3

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023-yil **1-noyabr** holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **1 168** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **1** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **1 167** tani tashkil qildi


	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar- oktabr oyiga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	304,0	109,7
Andijon shahar	133,2	111,0
Xonobod shahar	3,9	110,9
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	14,9	107,6
Andijon	23,5	109,0
Baliqchi	6,1	109,7
Bo'ston	7,5	109,4
Buloqbo'shi	2,6	109,1
Jalaquduq	6,3	109,0
Izboskan	8,9	111,0
Ulug'nor	3,5	110,1
Qo'rg'ontepa	13,7	100,9
Asaka	13,6	108,0
Marhamat	9,5	109,5
Shahrixon	38,6	109,5
Paxtaobod	10,7	111,6
Xo'jaobod	6,4	109,7

2023-yilning yanvar-oktabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **304,0** mlrd. so'mga yetdi. 2022-yilning mos davriga nisbatan **109,7** % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining **93,5** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023-yil 1-noyabr holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) **3 157,3** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **128,9 %** ga ortdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **1 602,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **151,4 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – **1 554,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **111,7 %**) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi



Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajm, mlrd. so'm	2022-yil yanvar- oktabr oyiga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	3 157,3	128,9
Andijon shahar	2 177,2	134,1
Xonobod shahar	0,3	103,2
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	124,5	111,5
Andijon	115,3	111,8
Baliqchi	3,3	105,9
Bo'ston	0,4	105,2
Buloqboshi	0,7	103,0
Jalaquduq	3,3	109,8
Izboskan	1,4	105,5
Ulug'nor	0,2	104,3
Qo'rg'ontepa	36,8	111,5
Asaka	365,5	152,8
Marhamat	12,0	111,3
Shahrixon	11,5	109,4
Paxtaobod	2,4	108,2
Xo'jaobod	302,5	98,6

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (**2 177,2** mlrd. so'm), Asaka (**365,5** mlrd. so'm) va Xo'jaobod (**302,5** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.




ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI




Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'mda



Viloyat bo'yicha 2023-yilning yanvar-oktabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **5 216,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **7,8 %** ga o'sdi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **4 860,1** mlrd. so'mni tashkil qilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **108,0 %** ga to'g'ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **93,2 %** ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Oltinko'l, Andijon va Jalaquduq tumanlarida kuzatildi.

2023-yil **1-noyabr** holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **2 887** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **28** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 859** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar- oktabr oyiga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	5 216,5	107,8
Andijon shahar	1 819,1	103,2
Xonobod shahar	25,2	106,7
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	279,8	121,6
Andijon	525,0	121,3
Baliqchi	353,4	104,8
Bo'ston	132,9	105,9
Buloqbo'shi	115,8	106,3
Jalaquduq	60,0	116,7
Izboskan	101,7	106,4
Ulug'nor	56,7	105,9
Qo'rg'ontepa	143,8	113,7
Asaka	169,0	108,7
Marhamat	90,0	112,9
Shahrixon	1 178,6	105,6
Paxtaobod	94,4	107,1
Xo'jaobod	71,1	144,0



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: 74 228-30-57**